Bank risklarini boshqarishdagi kamchiliklar oqibatida bank tizimida yuzaga kelgan inqiroz holati moliya bozorining boshqa segmentlariga ham ta'sir ko'rsatib, iqtisodiyot uchun tizimli risklarning kengayishiga sabab bo'ladi. Xususan, Irlandiyada 2000-yillarning o'rtalarida ko'chmas mulk bozoridagi yuqori o'sish sharoitida banklar ipoteka hamda qurilish va ko'chmas mulk sektoriga yo'naltirilgan kreditlash hajmini keskin kengaytirishi natijasida aktivlar sifati zaiflashdi va to'lov intizomi pasaydi. Natijada, 2013-yilning sentyabr oyi yakunida uy-joy ipotekalari bo'yicha 90 kundan ortiq kechikishdagi hisoblar ulushi 12,9 foizga yetgani qayd etilgan. Shu davrda bank tizimidagi bosimni yumshatish maqsadida 2008-yilning sentyabrda davlat bank majburiyatlarini keng qamrovda kafolatlash choralari qo'llagan, keyinchalik esa muammoli ko'chmas mulk aktivlarini balansdan chiqarish va tozalash uchun NAMA mexanizmi joriy etilgan.

Mamlakatimizda ham bank tizimini institutsional yangilash va barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar doirasida bir qator dasturiy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonida bank tizimini transformatsiya qilish jarayonlarini yakunlash, xususan xususiy banklar ulushini oshirish bilan bir qatorda, iqtisodiyotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni aniqlash va ularning bank tizimi barqarorligiga ta'sirini baholashga qaratilgan stress-test modellarini rivojlantirish hamda ehtimoliy moliyaviy yo'qotishlarga bardoshlilikni ta'minlash uchun makroprudensial buferlarni shakllantirish yo'nalishlari ustuvor vazifalar sifatida qayd etilgan [Farmon, 2022].

Bank risklarini boshqarish tizimi riskning yuzaga kelishini oldindan hisobga olish, risk tufayli yuzaga keladigan holatlarga yo'l qo'ymaslik yoki ularning ta'sirini kamaytirish borasidagi chora-tadbirlar va usullar yig'indisini o'z ichiga oladi. Bank risklarini boshqarish tizimi ikki asosiy kichik tizimdan iborat bo'lib, boshqarish obyekti va boshqarish subyekti qamrab oladi. Risklarni boshqarish tizimida boshqarish obyekti — bank faoliyatidagi risklar, bank bilan mijoz o'rtasidagi yoki kreditor bilan qarz oluvchi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar, bankning mablag'larni jalb qilish va ularni joylashtirish bilan bog'liq operatsiyalarida yuzaga keluvchi risklar bo'lsa, risklarni boshqarish tizimining subyekti — riskga o'z ta'sirini o'tkaza oluvchi guruh, tadbirkor, bank hamda risk bo'yicha menejerlar hisoblanadi.

Risklarni boshqarishga oid juda ko'plab tadqiqotlar mavjud bo'lib, tadqiqotchilarning aksariyati Rossiya, AQSh hamda G'arbiy Yevropa davlatlarining iqtisodchi olimlaridir. "Risk" so'zining ma'nosini izohlashda olimlar deyarli bir xil fikr bildirgan bo'lsalar-da, ularning qarashlarida ayrim tafovutlar mavjudligini ta'kidlash lozim.

Rossiyalik iqtisodchi olim A. P. Alginning fikriga ko'ra, risk — shunday umumlashgan hodisaki, u inson sivilizatsiyasi jarayonidagi rivojlanish bilan chambarchas bog'liqdir. Risklar mohiyatan muqarrar tanlov sharoitida noaniqlikni bartaraf etish faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ushbu faoliyat davomida miqdoriy va sifat jihatidan ko'zlangan natijaga erishish yoki rejalashtirilgan ko'rsatkichlarga erishmaslik riskini baholash imkonini beradi. S. N. Ojegovning rus tili lug'atida risk "muvaffaqiyatga intilish, baxtli hodisaga umid" degan ma'noda talqin etilgan bo'lsa, "Merriam-Webster" lug'atida u "zarar yoki talofat ko'rish ehtimoli" sifatida izohlangan.

E. S. Stoyanova "Risk — bu rejalashtirilgan variantga nisbatan daromad ola olmaslik yoki zarar ko'rish ehtimolidir", degan ta'rifni keltirgan. Karl Berch esa "Har qanday kompaniyaning tavakkalchilikni boshqarish falsafasining asosiy tarkibiy qismi uning risk appetitini aniqlashdir. Risk appetiti kompaniyaning moliyaviy va operatsion imkoniyatlariga, o'sish sur'atlariga va manfaatdor tomonlar tomonidan rentabellik istiqbollari qarang, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risk miqdorini aks ettiradi", deb ta'riflaydi.

Risk appetitining adekvat va aniq belgilanishi banklar hamda kompaniyalarga global moliyaviy beqarorlik sharoitida tavakkalchiliklar doirasini maqbul darajada ushlab turish, yo'qotishlar ehtimolini cheklash va moliyaviy barqarorlikni saqlash imkonini beradi. Risk appetit darajasi asosida tijorat banklari risklarni boshqarish

1 <https://lex.uz/mact/-4590452>

2 <https://lex.uz/docs/-4581969>





strategiyasini shakllantirib, risk limitlari, portfel siyosati va nazorat mexanizmlarini mazkur strategik chegaralar bilan uyg'unlashtiradi.

Yuqoridagi yondashuvlardan kelib chiqib, mazkur tadqiqot doirasida bank risklarini monitoring qilishning milliy tizimini takomillashtirish, kredit risklarini barvaqt aniqlash mexanizmlarini kuchaytirish, shuningdek risk appetit, limitlar va kapital buferlari orqali barqarorlikni ta'minlash masalalari ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb vazifa sifatida qaraladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida O'zbekiston tijorat banklari misolida bank risklarini boshqarish amaliyoti kompleks tahlil qilinib, mavjud muammolarning sabablari aniqlandi va ularni bartaraf etishga qaratilgan yechimlar keltirib o'tildi. Adabiyotlar sharhi doirasida mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning mazkur yo'nalishdagi ilmiy ishlari tanqidiy-tahliliy yondashuv asosida o'rganilib, olingan natijalar mualliflik xulosalari va mulohazalari bilan boyitildi. Shuningdek, tadqiqot natijalariga tayangan holda tijorat banklarida risklarni identifikatsiya qilish, baholash va monitoring qilish mexanizmlarini kuchaytirish, risk-appetit va limitlar tizimini takomillashtirish hamda nazorat instrumentariyini modernizatsiya qilish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

“O'zbekiston–2030” strategiyasi moliya sektorini transformatsiya qilishning uzoq muddatli yo'l xaritasi sifatida bank tizimi oldiga qator miqdoriy va institutsional vazifalarni belgilaydi [Farmon, 2023]. Birinchidan, kreditlash faoliyatini kengaytirish hamda resurs bazasini (depozitlar va boshqa jalb qilingan mablag'lar) mustahkamlash orqali bank-moliya tizimining moliyalashtirish salohiyatini oshirish ko'zda tutiladi. Xususan, yillik kreditlash hajmini 40 mlrd AQSH dollariga yetkazish va omonatlar hajmini bir necha barobarga ko'paytirish shular jumlasidandir. Ikkinchidan, sektorda raqobat muhitini kuchaytirish va samaradorlikni oshirish maqsadida banklarni xususiylashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, davlat ishtirokini optimallashtirish hamda yirik xalqaro banklarning bozorga kirib kelishini rag'batlantirish vazifalari belgilanadi. Uchinchidan, me'yoriy-nazorat tizimini zamonaviylashtirish yo'nalishida xalqaro e'tirof etilgan minimal standartlar va nazorat amaliyotini joriy etish, ya'ni prudensial talablar, shaffoflik va hisobdorlik mexanizmlari orqali risklarni cheklash masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. To'rtinchidan, moliyaviy mahsulotlar diversifikatsiyasini ta'minlash maqsadida islom moliyasi instrumentlarini tijorat banklari amaliyotiga bosqichma-bosqich tatbiq etish va ushbu yo'nalishning huquqiy-me'yoriy asoslarini shakllantirish ham muhim drayver sifatida ko'riladi. Beshinchidan esa, sud muhokamalari jarayonida qarzdorlik bo'yicha hisob-kitoblar mexanizmlarini tartibga solish, jumladan da'vo kiritilgan kreditlarga qo'shimcha foiz va penya hisoblashni cheklashga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni joriy etish orqali kredit intizomini va huquqiy aniqlikni kuchaytirish vazifasi ham nazarda tutiladi.

Xalqaro amaliyot bank tizimi barqarorligini ta'minlash faqat davlatning “faol” aralashuvi bilan cheklanmasligini ko'rsatadi. Katta resurslar safarbar etilganda ham bozor ishonchi, aktivlar sifati va likvidlik kanallari orqali xavflar saqlanib qolishi mumkin. Shu bois bank nazorati va prudensial tartibga solishda riskka asoslangan yagona yondashuv hamda umume'tirof etilgan xalqaro standartlarga tayanish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Mazkur nuqtayi nazardan bank risklarini baholash, kapital yetariligi talablarini shakllantirish va nazorat tamoyillarini modernizatsiya qilishda xalqaro miqyosda yetakchi institutlardan biri — Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi (BNBQ) hisoblanadi. BNBQ tomonidan ishlab chiqilgan standartlar riskka mos kapitallashuv, riskka asoslangan nazorat modeli va shaffoflik tamoyillari orqali bank barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi normativ-metodologik baza sifatida namoyon bo'ladi.

“Bazel I” — Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan 1988-yilda qabul qilingan kapital yetariligi bo'yicha ilk xalqaro kelishuv bo'lib, uning markaziy g'oyasi banklar kapitalini riskka bog'langan aktivlar bilan bog'lash orqali bank tizimi barqarorligini mustahkamlashdan iborat. Ushbu yondashuv, birinchi navbatda, kredit riskini cheklash va bankning yo'qotishlarni qoplash salohiyatini ta'minlashga qaratilgan.

“Bazel II” 2004-yil iyun oyida qabul qilingan qayta ko'rib chiqilgan ramka bo'lib, kapital yetariligi baholash va nazorat qilish tizimini sifat jihatdan rivojlantirdi. U uchta asosiy elementga (Pillar) tayanadi:

- Pillar 1 — kapital yetariligi bo'yicha minimal talablar;
- Pillar 2 — nazorat organlari tomonidan baholash va bankning ichki kapital yetariligi baholash jarayonlari;
- Pillar 3 — bozor intizomi, shaffoflik va risklarni ochib berish.

Shu bilan birga, “Bazel II” kredit riskini baholashda standartlashgan yondashuv va ichki reytingga asoslangan (IRB) yondashuv kabi mexanizmlarni taklif qilib, riskni o'lchashning sezgirliigi va banklarning ichki risk instrumentariyiga qo'yiladigan talablarni kuchaytirdi. Jahon mamlakatlarida Bazel II standartlari 2006-yil dekabr oyida rasmiy kuchga kirdi, amaliyotda esa ko'plab mamlakatlarda joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshirilgan.



“Bazel III” — 2007–2009-yillardagi moliyaviy-iqtisodiy inqiroz saboqlari asosida ishlab chiqilgan xalqaro prudensial choralar majmuasi bo‘lib, u banklarni tartibga solish, nazorat qilish va risklarni boshqarishni kuchaytirishga qaratilgan. Ushbu prudensial yondashuvlar majmuasi kapital sifati va barqarorligini mustahkamlash, shuningdek tizimning shoklarga chidamliligini oshirishga yo‘naltirilgan.

Shu kontekstda Bazel qo‘mitasi takliflari G20 darajasida qo‘llab-quvvatlangani qayd etiladi, bu esa post-inqiroz davrida prudensial standartlarni global miqyosda muvofiqlashtirishga turtki bo‘lgan.

Banklarning rentabelligining pasayishiga ta‘sir qiluvchi omillardan biri banklardagi muammoli kreditlardir (1-jadval).

1-jadval. Tijorat banklarining 2023-2025-yillarda kredit portfeli hamda muammoli kreditlari (NPL) bo‘yicha tahliliy ma‘lumot (mlrd.so‘m)<sup>3</sup>

| №  | Banklar nomi                  | Kreditlar<br>2023.01.01 | Muammoli kreditlar (NPL)<br>2023.01.01 | Muammoli kreditlar ulushi<br>2023.01.01 | Kreditlar 2024.01.01 | Muammoli kreditlar (NPL)<br>2024.01.01 | Muammoli kreditlar ulushi<br>2024.01.01 | Kreditlar 2025.12.01 | Muammoli kreditlar (NPL)<br>2025.12.01 | Muammoli kreditlar ulushi<br>2025.12.01 |
|----|-------------------------------|-------------------------|----------------------------------------|-----------------------------------------|----------------------|----------------------------------------|-----------------------------------------|----------------------|----------------------------------------|-----------------------------------------|
| 1  | O‘zmilliybank                 | 89 410                  | 2 638                                  | 3,0%                                    | 99 423               | 3 098                                  | 3,1%                                    | 104 878              | 3 534                                  | 3,4%                                    |
| 2  | Agrobank                      | 43 846                  | 1 685                                  | 3,8%                                    | 54 483               | 2 071                                  | 3,8%                                    | 80 403               | 2 741                                  | 3,4%                                    |
| 3  | O‘zsanoatqurilishbank         | 48 076                  | 1 359                                  | 2,8%                                    | 57 124               | 1 283                                  | 2,2%                                    | 64 937               | 1 981                                  | 3,1%                                    |
| 4  | Asaka bank                    | 36 742                  | 1 707                                  | 4,6%                                    | 39 213               | 1 731                                  | 4,4%                                    | 41 981               | 1 905                                  | 4,5%                                    |
| 5  | Kapital bank                  | 15 408                  | 181                                    | 1,2%                                    | 26 586               | 375                                    | 1,4%                                    | 35 971               | 1 186                                  | 3,3%                                    |
| 6  | Ipoteka-bank                  | 32 658                  | 810                                    | 2,5%                                    | 37 264               | 1 733                                  | 4,7%                                    | 34 407               | 1 728                                  | 5,0%                                    |
| 7  | Xalq banki                    | 21 666                  | 2 584                                  | 11,9%                                   | 24 549               | 1 855                                  | 7,6%                                    | 32 837               | 1 107                                  | 3,4%                                    |
| 8  | Biznesni rivojlantirish banki |                         |                                        |                                         | 21 801               | 1 935                                  | 8,9%                                    | 24 445               | 1 390                                  | 5,7%                                    |
| 9  | Hamkorbank                    | 11 423                  | 67                                     | 0,6%                                    | 15 854               | 99                                     | 0,6%                                    | 23 352               | 231                                    | 1,0%                                    |
| 10 | Mikrokreditbank               | 13 319                  | 635                                    | 4,8%                                    | 14 437               | 865                                    | 6,0%                                    | 20 329               | 971                                    | 4,8%                                    |
| 11 | Aloqa bank                    | 9 162                   | 186                                    | 2,0%                                    | 10 294               | 157                                    | 1,5%                                    | 17 912               | 563                                    | 3,1%                                    |
| 12 | Ipak yo‘li bank               | 8 065                   | 151                                    | 1,9%                                    | 11 701               | 251                                    | 2,1%                                    | 15 827               | 212                                    | 1,3%                                    |
| 13 | Turon bank                    | 9 431                   | 242                                    | 2,6%                                    | 11 894               | 271                                    | 2,3%                                    | 14 140               | 390                                    | 2,8%                                    |
| 14 | Orient Finance bank           | 5 140                   | 33                                     | 0,6%                                    | 8 448                | 25                                     | 0,3%                                    | 13 879               | 67                                     | 0,5%                                    |
| 15 | Tibisi bank                   | 1 507                   | 31                                     | 2,1%                                    | 3 730                | 73                                     | 1,9%                                    | 10 262               | 578                                    | 5,6%                                    |
| 16 | Anor bank                     | 2 146                   | 53                                     | 2,5%                                    | 3 169                | 64                                     | 2,0%                                    | 9 593                | 450                                    | 4,7%                                    |
| 17 | Invest Finance bank           | 4 777                   | 26                                     | 0,6%                                    | 6 431                | 68                                     | 1,1%                                    | 8 905                | 238                                    | 2,7%                                    |
| 18 | Davr bank                     | 3 092                   | 48                                     | 1,6%                                    | 5 004                | 32                                     | 0,6%                                    | 8 819                | 314                                    | 3,6%                                    |
| 19 | Trastbank                     | 3 496                   | 132                                    | 3,8%                                    | 4 947                | 101                                    | 2,0%                                    | 7 885                | 284                                    | 3,6%                                    |
| 20 | Hayot bank                    |                         |                                        |                                         | 30                   | 0                                      | 0,0%                                    | 4 205                | 175                                    | 4,2%                                    |
| 21 | Asia Alliance bank            | 2 174                   | 31                                     | 1,4%                                    | 3 712                | 55                                     | 1,5%                                    | 3 969                | 46                                     | 1,2%                                    |

Tijorat banklari faoliyatida kredit risklari boshqa risk turlariga nisbatan strategik jihatdan ustuvor hisoblanadi va bankning moliyaviy barqarorligiga ta‘siri yuqori bo‘ladi. Bu holat, birinchidan, kredit operatsiyalari bank aktivlarining salmoqli qismini tashkil etishi hamda kredit portfelidagi konsentratsiya darajasi bankning umumiy risk profilini belgilashi bilan izohlanadi. Ikkinchidan, qarzdor tomonidan to‘lov majburiyatlarining muddatidan kech bajarilishi yoki defolt holatlari pul oqimlarining barqarorligini izdan chiqarib, likvidlik pozitsiyasiga va majburiyatlarni o‘z vaqtida bajarish qobiliyatiga bevosita bosim o‘tkazadi. Uchinchidan, to‘lov intizomining buzilishi foizli daromadlarni qisqartirar ekan, bank rentabelligini pasaytiradi hamda kapitalni ichki manbalar hisobidan shakllantirish va qayta tiklash imkoniyatlarini cheklaydi.

3 Manba: Markaziy bank malumotlari asosida tayyorlandi



Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, bank tizimida kreditlar hajmi 2023-yilning 1-yanvarida 390,0 trln so'mdan 2025-yilning 1-dekabrida 595,3 trln so'mgacha yetgan bo'lib, kreditlash ko'lami 52,6 foizga o'sgan. Shu davrda muammoli kreditlar hajmi ham 14,0 trln so'mdan 20,5 trln so'mgacha oshgan (o'sish 46,8 foiz). Biroq NPL ulushi tizim bo'yicha nisbatan barqaror saqlanib, 3,59 foiz atrofida 3,45 foizga tushgani kuzatiladi, bu portfel sifatini boshqarish va kredit shartlarini qayta ko'rib chiqish amaliyotining muayyan samarasini anglatadi.

Banklar kesimida 2025-yilning 1-dekabr holatiga NPL ulushi nisbatan yuqori ko'rsatkichlar, xususan, Biznesni rivojlantirish banki — 5,7 foiz, TBC bank — 5,6 foiz, Ipoteka-bank — 5,0 foiz atrofida shakllangan. Shu bilan birga, ayrim yirik banklarda portfel sifati yaxshilangani ham kuzatiladi. Masalan, Xalq bankida NPL ulushi 2024-yilning 1-yanvarida 7,6 foiz bo'lgan bo'lsa, 2025-yilning 1-dekabriga kelib 3,37 foizgacha pasaygan. Umuman olganda, keltirilgan dinamika kredit risklarini boshqarishda portfel monitoringi, erta ogohlantirish indikatorlari hamda risk-appetit va limitlar tizimini yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada xalqaro amaliyot hamda Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan prudensial standartlar nuqtayi nazaridan O'zbekiston tijorat banklarida risklarni boshqarishning dolzarb masalalari tahlil qilindi. Olingan natijalar bank tizimini isloh qilishga qaratilgan strategik vazifalarni, jumladan xususiylashtirishni chuqurlashtirish, nazorat infratuzilmasini modernizatsiya qilish, shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish bilan bir qatorda, risklarni identifikatsiya qilish, baholash va monitoring qilish mexanizmlarini institutsional jihatdan mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

“O'zbekiston–2030” strategiyasi bank-moliya tizimida uzoq muddatli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirayotgan sharoitda risklarni boshqarish alohida amaliyotlar bilan cheklanmasdan, kapital, likvidlik, korporativ boshqaruv va oshkoralikni yagona risk boshqaruv tizimiga uyg'unlashtirgan holda kompleks tarzda amalga oshirilishi lozimligini taqozo etadi. Ayniqsa, davlat ishtirokining yuqori darajada saqlanib qolayotgani va korporativ boshqaruv sifatini oshirish ehtiyoji mavjud sharoitda risklarni boshqarishning samarali modeli bank barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi omilga aylanadi. Kreditlash hajmlarining sezilarli o'sishi moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirsada, kredit portfeli sifati ustidan tizimli nazoratning yetarli emasligi NPL dinamikasi, daromadlar barqarorligi va likvidlik pozitsiyasi orqali tavakkalchiliklarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Bunda risklarni samarali boshqarish faqat tashkiliy yondashuvlar bilan cheklanmasdan, amaldagi prudensial me'yorlar bilan ham mustahkamlanishi zarur. Xususan, tijorat banklari kapitalining monandligi bo'yicha talablar (ro'yxat №2693) hamda likvidlikni boshqarishga qo'yiladigan talablar (ro'yxat №2709) banklar uchun majburiy komplaens standarti sifatida risklarni cheklashning huquqiy-me'yoriy asosini ta'minlaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки бошқаруви. (2015). «Тижорат банклари капиталининг монандлигига қўйиладиган талаблар тўғрисида» (Адлия вазирлигида рўйхат №2693, 2015 йил 6 июл).
2. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг расмий веб-сайти <https://stat.uz/uz/#> (www.stat.uz)
3. Ж.И.Исаков, З.Ж.Адилова, Б.А.Хонтўраев “Банк рисклари” ўқув қўлланма “Иқтисодиёт” Тошкент-2020 йил. 14-15 бет.
4. Тогаев, С. С., & Амиров, Э. Д. (2016). Основные рекомендации внедрения международных стандартов Базель III в мире и особенности внедрения их в Узбекистане. World science, 3(3 (7)), 56-61.
5. Юшкова С.Д. Адаптация Базельских соглашений для целей внутренних стандартов деятельности банка // Аудитор. 2013. №4. С. 29-36
6. Burch, С. (н.д.). Risk Appetite: “Не откусывайте больше, чем можете проглотить”. Cfin.ru. Манба: [https://www.cfin.ru/finanalysis/risk/Risk\\_Appetite.shtml](https://www.cfin.ru/finanalysis/risk/Risk_Appetite.shtml)

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 2**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**







+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)